**URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI TABIIY FANLAR FAKULTETI GEODEZIYA, KARTOGRAFIYA, GEOGRAFIYA KAFEDRASI**

## 60722500 - Geodeziya, kartografiya va kadastr (funksiyalari bo’yicha)

60722500 - Geodeziya, kartografiya va kadastr (funksiyalari bo’yicha) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar tayyorlash kunduzgi, kechki va sirtki ta’lim shakllarida amalga oshiriladi. Barcha ta’lim shakllari bo‘yicha ukitish kredit-modul tizimi asosida tashqil kilinadi. Kunduzgi ta’limda bakalavriat dasturining me’yoriy muddati 4 yil.

60722500 - Geodeziya, kartografiya va kadastr (funksiyalari bo‘yicha) - fan, ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish sohasidagi yo‘nalish bo‘lib, Yer shaklini o‘rganish va uning sirtida aniq va yuqori aniq geodezik o‘lchashlarni bajarish orqali plan va kartalarni yaratish hamda davlat hududini kartalashtirish ishlarini zamonaviy sun’iy yo‘ldosh tizimlari va masofadan turib erni zondlash usulidan foydalanish, bino va inshootlarni loyihalash va qurishda bajariladigan geodezik ishlarda zamonaviy asbob va texnologiyalarni qo‘llash, Davlat kadastrlarini yaratish va yuritish ishlarini geografik axborot tizimlari (GAT) texnologiyalari asosida tuzish va yuritish usullari hamda vositalar majmuasini qamrab oladi.

## Kasbiy faoliyatlarining obyektlari:

- Turli metodlar bo‘yicha o‘tkaziladigan tadqiqot ishlarida qatnashish va natijalarni qayta ishlash va xulosalar chiqarish;
- Geodezik o‘lchashlar mohiyati va asboblari tuzilishini o‘rganish hamda

ulardan geodezik va kadastr ishlari jarayonida foydalanishni tashqil etish;

- Davlat hududini kartalashtirish ishlarida zamonaviy texnologiyalarni joriy etish chora tadbirlarini ishlab chiqish;

- Qurilishni loyiha oldi injenerlik qidiruvlarida maxsus tayanch geodezik asos yaratishni va topografik s’yomkalarni bajarishni asoslangan dasturini ishlab chiqish;

- Kadastr maqsadida bino va inshootlar o‘lchamlarini aniqlash va ular qiymatini baholash tamoyillarini ishlab chiqish;.

- kartografik proeksiyalar, geodezik va geografik asoslarni qurish va tizimli yondashuv asosida umumgeografik va mavzuli karta va atlaslarni yaratish va nashr etish;

- Fanlar Akademiyasi va tarmoq institutlarining tajriba-tadqiqot va ilmiy - tadqiqot laboratoriyalarida izlanishlar olib borish;

- davlat boshqaruvi organlarining turli hududiy darajalarida mutaxassis sifatida faoliyat ko‘rsatish;

- o‘rta-maxsus, kasb-hunar ta’lim muassasalarida mutaxassislikka oid fanlardan dars berishi;

- ta’lim, vazirliklarning o‘quv-ilmiy bo‘limlarida faoliyat yuritish.